

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

2-QISM

*Umumiy o'rta ta'lif maktablarining
1-sinfi uchun darslik*

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr



Toshkent – 2021

УО'К 811.512.133(075.3)
КБК 81.2(5О')ya71
О 58

Tuzuvchilar:
Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova,
Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun

Xalqaro ekspert:
Lannuzzi Susan

Taqrizchilar:
B. Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor.
V. Qodirov – pedagogika fanlari doktori, professor.
N. Nurmatova – Toshkent shahridagi 273-maktab o'qituvchisi.

Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 104 b.

ISBN 978-9943-7522-2-1

УО'К 811.512.133(075.3)
КБК 81.2(5О')ya71

SHARTLI BELGILAR:



– o'qing



– qoida bilan tanishing



– savollarga javob bering



– qiziqarli mashg'ulot



– o'quvchi daftariga yozing



– partadoshingiz bilan bajaring



– audiomatnni tinglang



– rasmga qarang



– topshiriqni bajaring



– quvnoq musobaqa



– dars tugadi

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Original maket va dizayn konsepsiysi
Respublika ta'lif markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-7522-2-1

© Respublika ta'lif markazi, 2021

MUNDARIJA

SAN'AT VA MADANIYAT



Ertakdagি qahramon



6-bet

19-bet



Birinchi kitobim

Mehmon bo'lish yaxshi-da

28-bet



TIL VA DIL



She'r bo'ladigan so'zlar

38-bet



Sanamalar

47-bet

FAN VA TEKNOLOGIYALAR

Oy Yerdan kattami?



64-bet



Siz buni bilasizmi?



79-bet




O'quv yili oxirida takrorlash



90-bet

Matnlarda qo'llangan so'zlar lug'ati



101-bet



ERTAKDAGI QAHRAMON



Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.





- 1 Rasmdagi qahramonlarni taniysizmi?
- 2 Ularning ismi nima?
- 3 Ular qaysi ertakning qahramoni?
- 4 Ularning qaysilari o'zbek xalq ertaklari qahramonlari?

Ertak – xalq to‘qigan badiiy asar. Hali kitob yo‘q vaqtida odamlar bir-birlariga ertaklar aytib berishgan. Bir kishi birovdan eshitgan ertagini boshqa kishiga so‘zlab bergan. Shu yo‘l bilan ertaklar avloddan avlodga o‘tgan. Har bir xalqning o‘z milliy ertaklari bor. “Zumrad va Qimmat”, “To‘g‘rivoy bilan Egrivoy”, “Uch og‘ayni botirlar” o‘zbek xalq ertaklaridir.



Ertak qahramoni – ertakdagi voqeanning asosiy qatnashchisi.



1. Rasmlardagi qahramonlar ismi va ertak nomini to'g'ri ko'rsating.



Zumrad va Qimmat

Egrivoy

Qizil qalpoqcha

Bo'g'irsoq

To'g'rivoy

Qimmat

Bo'g'irsoq



Zumrad



To'g'rivoy bilan Egrivoy

Qizil qalpoqcha





2. “Zumrad va Qimmat” ertagidagi voqealar ketma-ketligini belgilang. Daftaringizga yozing.






“Serkaboboning hiylasi” deb nomlangan ertakni tinglang.



**3. Berilgan rasmlar ichidan eshitgan ertagingizdagi qahramonlarni belgilab chiqing.
Daftarga ularning nomini yozing.**





- 1 Serkaboboning bolalari qayerda yashar edi?
- 2 Bo'ri nima qilmoqchi bo'ldi?
- 3 Echkilar bo'ri haqida kimga aytib berishdi?
- 4 Arslon nima qildi?
- 5 Echkilarni bo'ridan qutqargani uchun arslon nima talab qildi?
- 6 Serkabobo arslonning oldiga kim bilan bordi?
- 7 Serkabobo arslonga nima dedi?
- 8 Arslon nima uchun quduqqa sakradi?
- 9 Ertak nima uchun "Serkaboboning hiylasi" deb nomlangan?
- 10 Ertakdagi asosiy qahramon kim? Nima uchun?





Rasmlarga qaysi sarlavha mos? Ko'rsating.

Tulkining hiylasi

Ovchining hiylasi

Bo'g'irsoqning hiylasi

Serkaboboning hiylasi





Ikki ustundagi gaplarni solishtiring. Ular o'rtasidagi farqni tushuntiring.

Bo'ri toshlar orasidan mo'ralabdi.

Bo'ri toshlar orasidan qarabdi.

Bo'rining niyati echkilarga ma'lum bo'lib qolibdi.

Echkilar bo'rining niyatini bilib qolibdilar.

Arslonning yoniga borish uchun bir echki bilan Serkaboboni vakil qilib tayinlashibdi.

Arslonning yoniga echkilarning arzini yetkazish uchun bir echki bilan Serkabobo boradigan bo'libdi.

Serkabobo bilan echki arslonning uyiga yo'l olishibdi.

Serkabobo bilan echki arslonning uyi tomon ketishibdi.

Serkabobo yig'lamsirab bo'lgan gapni aytibdi.

Serkabobo bo'lgan gapni yig'laganday bo'lib aytibdi.

Arslon ko'zlari yonib o'rnidan turibdi.

Arslon jahl bilan o'rnidan turibdi.

O'sha bo'rining adabini beraman.

O'sha bo'rini jazolayman.

Arslon ikkita echkini haydab ketibdi.

Arslon ikkita echkini olib ketibdi.

Nega quruq kelding?

Nega echkisiz kelding?

Arslon g'azablanibdi.

Arslonning jahli chiqibdi.



4. Berilgan so‘zlardan mosini yozib gaplarni to‘ldiring.



“Jonli savatcha” she’riy ertagini o‘qing.



JONLI SAVATCHA


Shundoq o‘rmon chetida, o‘tloq bo‘yida
Chiroyli bir savatcha yotar qarovsiz.
Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor,
Bunaqasin, ehtimol, ko‘rmagansiz siz.



Ichidagi oq tuxum bir payt qimirlab,
Tumshug‘ini chiqardi sho‘x jo‘ja shodon.
Hayrat bilan olamga boqib turganda
Bo‘yni qisilib qoldi, qarang, nogahon.



Ana tashvish, ana g'am, ana mashmasha,
 Chiqa olmas jo'javoy tuxumni yorib.
 Uchib kelib yoniga shu chog' kapalak
 Yordam bermoqchi bo'ldi, unnadi horib.



Jo'jadan sal uzoqroq turib chuvalchang
 Maslahat bergen bo'ldi tashvishli qarab:
 "Jim o'tirsang, tuxumdan chiqishing gumon,
 Harakat qil, o'tirma menga mo'ltirab".

Uchib kelib qandaydir bir esli chumchuq
 Uraverdi tumshug'in tuxumga tinmay.
 Bergan yaqin yordami shu bo'ldi uning –
 Cho'qib oldi oxiri jo'jani bilmay.



Bu qandayin gap axir, bu qandayin gap?
 Nahot yordam berolmas "tutqun"ga hech kim?
 Ini tomon yo'l olgan ziyrak chumoli
 Turib qoldi jo'janing qarshisida jim.



Picha reja tuzdi-da, o'rmonga qaytdi,
 Yetib keldi zum o'tmay do'stlarin boshlab.
 Birgalashib jo'jani tortib oldilar:
 Ahillikda, birlikda, haqrost, ko'pdir gap.

Abdurahmon Akbar



- 1 Kapalak nima uchun jo‘jaga yordam bera olmadi? Chumchuq-chi?
- 2 Chuvalchangning maslahati nima uchun foyda bermadi?
- 3 Chumoli qanday qilib jo‘jaga yordam berdi?
- 4 Siz jo‘jaga qanday yordam bergen bo‘lardingiz?
- 5 Jo‘janing o‘rnida bo‘lganiningizda siz nima qilar edingiz?
- 6 Ertakdagি asosiy qahramon kim? Nima uchun?



5. O‘zingiz mustaqil ertak to‘qishga harakat qiling. Ertakning nomi nima bo‘ladi? Ertakda qanday qahramonlar ishtirop etadi?



6. Berilgan gaplardan to‘g‘ri yozilganlarini belgilang.



So‘zlarga **-ga** qo‘sishimchasini qo‘sding.
Tovushlardagi o‘zgarishga ahamiyat bering.

Chumoli + ga = chumoliga

Quduq + ga = quduqqa

Kapalak + ga = kapalakka





7. So‘zlarga -ga qo‘sishimchasining qo‘sishilishiga diqqat qiling.



Yashil va sariq rangda ajratilgan gaplarni solishtiring. Ularning farqiga e’tibor bering.

O’rmon chetidagi o’tloqda bir savatcha turardi. Uning ichida tuxum bor edi.

Shundoq o’rmon chetida, o’tloq bo'yida
Chiroyli bir savatcha yotar qarovsiz.
Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor,
Bunaqasin, ehtimol, ko’rmagansiz siz.

Quyidagi ta’riflarning qay biri yashil, qay biri sariq rangdagi gaplarga mos ekanini ayting.

Bir-birimiz bilan gaplashganda
ishlatiladigan gaplarga o’xshaydi.

Har bir qatori bir xil ohangda o’qiladi.
Qatorlar oxirida aytilishi o’xshash so‘zlar ishlatilgan.



8. Berilgan so‘zlarga ertakda keltirilgan ta’rifni topib yozing.





9. Berilgan so‘zlarning ohangdoshini “Jonli savatcha” ertagidan topib yozing.




O‘zingiz to‘qigan ertak uchun kitobcha yasang. Quyidagi savollar asosida kitobni qanday yashashni rejalashtiring:


1. O‘zingiz to‘qigan ertak uchun muqova o‘ylab toping. Kitob muqovasida nimalar bo‘ladi?
2. Kitobingiz necha betdan iborat bo‘ladi? Yozgan matningizni qanday joylashtirasiz?
3. Kitobingizda qanday rasmlar bo‘ladi?




1



2



3



4




BIRINCHI KITOBIIM



Rasmdagi nima? Siz ularning birortasini oldin ko'rganmisiz? Ularda nima haqida yozilgan deb o'ylaysiz?



Rasmda qanday joy tasvirlangan? U yerda nima qilish mumkin? Siz ulardan birortasida bo'lganmisiz?





1. Kitobning turini toping.




2. Kitob turini bildiruvchi so‘zlarni yozing.



Kitob tarixi haqidagi matnni tinglang.

Ossuriya – hozirgi Iroq hududida bo‘lgan qadimgi davlat.






- 1 Nima uchun kitob o'qiganda odam boshqa olamga sayr qiladi?
- 2 Siz kitob o'qiganingizda xursand yo xafa bo'lganmisiz? Nimadan xursand bo'l-gansiz? Nima uchun xafa bo'lgansiz?
- 3 Qadimgi kitoblar nimalardan qilingan?
- 4 Hozirgi kitoblar nimadan qilinadi?



Rasmdagilarning qaysi biri loy kitob, qaysi biri bambuk kitob va qaysi biri tosh kitob?



3. Qaysi mamlakatda bunday kitob turlari qo'llanganini yozing.



21



“VARAQJONGA RAHMIM KELGAN”

Birinchi o‘qigan kitobim Nikolay Nosovning “Bilmasvoy va do‘smlarining sarguzashtlari” asari bo‘lgan. O‘shanda besh yosh edim. Bu kitobni menga buvim sovg‘a qilgandilar. Kitob rangli rasmlari bor, harflari katta-katta, juda qiziqarli edi. U Bilmasvoy ismli bola va uning Bilag‘on, Shoshqaloq, Murvatvoy, Tuzatvoy, Tug-machaxon, Olabola, Varaqjon, Harfxon kabi do‘smlari to‘g‘risida edi.



Bu kitobdan eng esimda qolgani – Bilmasvoyning sehrli tayoqchasi bilan bog'liq voqeа. Bilmasvoy uchta yaxshi ish qilib, sehrli tayoqchaga ega bo'ladi. U Quyosh shahrida Varaqjon bilan to'qnashib ketib, jahl ustida uni eshakka aylantirib qo'yadi. O'shanda Varaqjonga rahmim kelib yig'laganman. Uning o'rnida o'zimni tasavvur qilganman. "Meni ham birov shunday sehrlab qo'ysa, nima qilar edim?" deb qo'rqqanman.

Shirin G'ofurova



- 1 Matn muallifi ilk bor kitob o'qiganda necha yosh bo'lgan?
- 2 U qaysi kitobni o'qigan?
- 3 Kitobni unga kim bergen?
- 4 Kitobdagi qaysi voqeа uning esida qolgan?
- 5 Bilmasvoy kimni eshakka aylantirib qo'yadi?
- 6 Siz o'qigan birinchi kitob qaysi?
- 7 Kitobdagi qaysidir qahramonga ramingiz kelganmi?





“Bilmasvoy va do’stlarining sarguzashtlari”
kitobidan parcha tinglang.



4. To‘g‘ri javoblarni belgilang.




- 1 Varaqjonga sizning ham rahmingiz kel-dimi?
- 2 Sizningcha, Bilmasvoy to‘g‘ri ish qildimi?
- 3 Uning o‘rnida siz nima qilgan bo‘lar-dingiz?
- 4 Varaqjonning o‘rnida bo‘lganiningizda-chi?



Berilgan parchadagi qaysi so‘zlar Bilmasvoy Varaqjonni jahl ustida eshakka aylantirganini bildiradi?

– Hah, mening gapim yolg‘onmi? – deb baqirdi Bilmasvoy alam qilganidan bo‘g‘ilib. U shu zahoti sehrli tayoqchasini silkitib: – Shu pakana bolaning eshakka aylanib qolishini istayman! – deb baqirdi.



- 1 Sizning birinchi o‘qigan kitobingiz qaysi?
- 2 U kitobni sizga kim bergen?
- 3 Kitobni kim yozgan?
- 4 Undagi qaysi voqeа esingizda qolgan?



5. Bo'sh o'rirlarni to'ldirib yozing.



KITOB

Hamma uchun barobar
Hotamitoy kitoblar.
Suratlari xilma-xil,
Mazmunga boy kitoblar.

Qo'shiq to'la,
She'r to'la –
Qiziq-qiziq kitoblar.
O'qiganni tortuvchi
Bag'ri issiq kitoblar.

Kitoblarning ichida
Qissa, doston yashaydi.
“O'rnak olgin mendan”, deb
Mard qahramon yashaydi.



Po'lat Mo'min



25



- 1 Kitob o'qigan har bir bola unda yozilgan hamma narsani bilib oladi. Nima deb o'ylaysiz, shuning uchun kitobni Hotamitoy deyish mumkinmi?
- 2 Kitoblarning bag'ri rostdan ham issiq bo'ladimi? Siz kitob o'qiganingizda uning bag'ri issiqligini his qilganmisiz?
- 3 Kitobdagi ertakni o'qir ekansiz, undagi voqealarni tasavvur qilasiz. Tasavvuringizda bo'g'irsoq qo'shiq aytadi, quyon gapiradi. Shuning uchun kitobdagi ertak, qissa va dostonlarni "yashaydi" deb aytish mumkinmi?



6. Daftardagi mashqni bajaring.



MUSTAHKAMLASH

1. Rasmdagi qahramonlar kim? Ular haqida nimalarni bilasiz?



2. Quyidagi so‘zlar ikkita so‘zdan yasalgan. Ular qaysi so‘zlar ekanini ayting.

otboqar

ko‘zoynak

dilozor

gulbeor

ochiqqo‘l

gulbog‘

3. Qaysi so‘zlar to‘g‘ri yozilgan?

do‘s

ars

rost

ros

arz

do‘s


4. Siz bu bo‘limda kitob yasadингиз. Kitob yasash uchun nimalar qilish kerakligini tartib bilan yozing.



MEHMON BO'LISH YAXSHI-DA



Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.



- 1 1-rasmda oila a'zolari nima qilishyapti?
- 2 Sizningcha, ular qanday kunni nishonlamoqchi?
- 3 Mehmonga kimlar keldi?
- 4 Mehmonlar mezbonga nima sovg'a qilishdi?
- 5 Sizningcha, dasturxon atrofida nimalar haqida gaplashishdi?
- 6 Mehmon qanday kutib olinishi kerak?
- 7 Sizga mehmon kutish yoqadimi yoki mehmonga borishmi?



Daftardagi mashqni bajaring.



Dasturxonga qo'yiladigan narsalarning nomini yozing.



Narsaning nomini bildirgan so'zlarga **nima?** deb so'roq beramiz. Masalan: **non, daraxt, kitob.**



MEHMON BO'LISH ODOBI

Xadicha mehmonga borishni juda yaxshi ko'radi. U ko'pincha ota-onasi bilan bobosinikiga boradi. Uлarni ko'rgan bobosi ham xursand bo'ladi. Mehmonlar uchun **tuzalgan** dasturxon **noz-ne'matlarga** to'lib ketadi. Bobosining aytishicha, **mehmondo'stlik** – xalqimizga xos odat.



Mehmonda o‘zini tutishiga qarab, bolaning odobi haqida bilib olish mumkin ekan. Buni Xadichaga bobosi aytgan. Masalan, odobli bola **dasturxonga** o‘tirishdan avval, albatta, qo‘llarini yuvadi. Yoshi kattalardan oldin taomga qo‘l uzatmaydi. Ovqatni o‘ng qo‘l bilan o‘z oldidan yejish, luqmani shoshilmay, og‘izni yumib chaynash ham odob belgisi hisoblanadi.

Aqli bola taom tayyorlaganlarga rahmat aytishni uyda ham, mehmonda ham unutmeydi.


Kamola Sodiq qizi



- ① Xadicha nima uchun mehmonga borishni yoqtiradi?
- ② Noz-ne’matlarga to‘la dasturxon qanday bo‘ladi?
- ③ Mehmondo‘stlik nima?
- ④ Mehmon bo‘lish odobi haqida nimalarni bilib oldingiz?
- ⑤ Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini lug‘atdan toping.
- ⑥ Siz ham ota-onangiz bilan bobo-buvingizni ko‘rgani tez-tez borib turasizmi?
- ⑦ “Mehmon + do‘st” birikmasi qanday ma’noni anglatyapti?



Rasmlar yordamida yangi so‘zlar hosil qiling.





2. “Mehmon bo‘lish odobi” matni asosida partadoshingiz bilan dialog tuzing. Biringiz bobo, biringiz nabira bo‘ling.

- Ayting-chi, bobo nabirasini qanday kutib ol-gan?
- Tuzgan dialogingizni partadoshingiz bilan birga o‘qib bering.
- Berilgan namunalardan foydalaning.

Iye-iye, assalomu alaykum.

Xush kelibsizlar!

Barakalla!

Yaxshi yetib keldinglarmi?

Marhamat!



Ahvollaringiz yaxshimi?

Va alaykum assalom.



3. Berilgan so‘zlarni satrdan satrga chiziqcha bilan ko‘chirib yozing.





Rasmli ertak.

G'ALATI ZIYOFAT



1 O'rmonda qizg'anchiq ola quyon yashagan ekan.


Ola quyon pishirayotgan sho'rvanining hidi tipratikanning ishtahasini ochib yuboribdi.



Kirsammikin?




Yumronqoziq ham mehmonga keldi.



Quyon qanday kutib oldi?



Quyon jahl qilib, oshxonadagi pashshalar bilan baqirib urisha boshladи.



7 Mehmonlar ketib qolishdi.




8 Quyon kelib qarasa, mehmonlar ovqatga qo'l urmabdi.



4. Rasm asosida tuzgan ertagingizni yozing. Unda “mehmondo’st”, “ochko‘z”, “xontaxta”, “lekin”, “yoki” so‘zlaridan foydalaning.



“Lekin”, “yoki” – bular so‘z va gaplarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi.



She’rni tinglang.

Eshigimiz taqillasa,
Deymiz: – Mehmon!
Hozirdanoq mehmonlarga
Biz mehribon.
Dasturxонни yasatamiz:
– Oling-oling!
Kech kirsa-ku, jildirmaymiz:
– Yotib qoling.
Bizning uydan doim mehmon
Arimaydi.
Bag‘ri ochiq kishilar hech
Qarimaydi.



- ① She'r nima haqida ekan?
- ② Mehmonlar uyga doim eshikni taqillatib kelishadimi?
- ③ Mehmonga qanday mehribonchilik qilish mumkin?
- ④ Nima uchun mehmonga "oling-oling" deyaveramiz?
- ⑤ Ayting-chi, "jildirmaymiz" so'zining ma'nosi nima?
- ⑥ "Arimaydi" so'zining ma'nosi nima?
- ⑦ "Bag'ri ochiq" deganda nimani tushundingiz?
- ⑧ She'rdagi qahramon mehmondo'st ekanmi? Siz-chi?



5. She'rdagi ohangdosh so'zlarni ko'chi-ring.



35



6. Mehmonga borish odoblari haqida yozing.

Mehmonga borishdan oldin

1. Ozoda kiyinish.
2. ...
3. ...



Mehmonda bo'lgan vaqt

1. Ochko'z bo'lmashlik.
2. ...
3. ...

Mehmondan qaytayotganda

1. Rahmat aytish.
2. ...
3. ...




7. Mehmondorchilik yakunida qanday tilaklar bildiriladi? 3 ta tilak yozing.



Namuna Dasturxonningiz to'kin bo'lsin.







D



SHE'R BO'LADIGAN SO'ZLAR



Rasmlarga qarang. Narsalarning nomini ayting.



1. Aytilishi o'xshash so'zlarni toping.
2. Oldingi mashqdagi so'zlarning bir-biridan farq qiladigan harfini yozing.




**She'rlarni o'qing. Nima haqida aytilganini
o'z so'zlaringiz bilan tushuntiring.**



**Askar jayrachalar qo'shig'i
Buyruq bersa otamiz,
Nayzamizni otamiz!**

Tulkixonning ukasiga dashnomi

Qanaqa betartibsan?!
Dumimga bet artibsan!



**Chuvalchangning hayrati
Ota-onam tinmay yer,
Tugab qolmasmikan yer?!**

**Tulkixonning simyog'ochdagи
laylakka iltimosi**

Ko'ryapsanmi deyman tush?
Hov laylak, sal pastroq tush!

Iqbol Mirzo



**Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi" she'rini
diqqat bilan tinglang.**



**She'rni eshitganingizda nimalarni tasavvur
qildingiz? Tasavvurlaringiz ifodalangan rasm
chizing.**









She'rni o'qing. Berilgan rasmlarga mos keluvchi qatorlarni toping.

BAHOR KELDI

Keldi bahor – gulbahor,
Erib bitdi oppoq qor.
Uchib keldi qushlarjon,
Daraxtlar taqdi marjon.
Suvlar oqar shildirab,
Yulduz boqar miltirab.
Chumolilar yayrashar,
Sho'x bulbullar sayrashar.
Quyosh nurlarin sochdi,
Atirgul g'uncha ochdi.
Bog'da qizil lolalar,
Terib oling, bolalar.
Tog' bag'rida qo'zilar
Ma'rab o'tga cho'zilar.
Tolbargak taqib qizlar,
Chuchmomalarni izlar.
Endi ilk sof navbahor,
Chunki bizda gulbahor.
Yuring, chiqaylik! Bog'lar
Bizni kutar, o'rtoqlar.

Shukur Sa'dulla





- 1 “Daraxtlar taqdi marjon” deganda nimani tushundingiz?
- 2 Shoir nimani marjon taqishga o‘xshatgan?
- 3 “Yulduz boqar miltirab” deganda nimani tushundingiz?
- 4 Bahorda bog‘lar bizni rostdan ham kutadimi?



boqar = qarar

boqadi = qaraydi



3. Gaplarni moslashtirib yozing.



Anvar Obidjonning “Tekinxo‘r” she’rini tinglang. Ohangiga e’tibor bering.



Anvar Obidjonning “Tekinxo‘r” she’rini eshitganingiz kabi o‘qing.

TEKINXO'R

Qumursqavoy
Topib uvoq,
Terga botib
Tortdi uzoq.

Chumchuq kelib
Sekingina,
Yutdi-qo'ydi
Tekingina.

Anvar Obidjon





Savollarga javob bering.

- ① Ushoqni kim topdi?
- ② Chumoli ushoqni nima qilayotgan edi?
- ③ Chumchuq nima qildi?
- ④ Nima deb o'ylaysiz, chumoli ushoqni qayoqqa olib ketayotgan edi?
- ⑤ She'r nima uchun "Tekinxo'r" deb nomlangan?



"Tekinxo'r" she'rinining mazmuni berilgan matnni o'qing. Savolga javob bering.

Chumoli ushoq topib, uni qiynalib olib ketayotgan edi. Shu payt chumchuq kelib, ushoqni yeb qo'ydi.



Chumoli ushoqni tortishda qiynalganini she'rdagi qaysi qatordan bilish mumkin?



NON OLIB KELDIM

Yolg'on emas, chin so'zim,
 Magazindan bir o'zim
 Ko'cha chetidan yurib,
 Ancha narsani ko'rib,
 Qaytimni yo'qotmasdan,
 Kuchukka tosh otmasdan
 Olib keldim issiq non,
 Uyga kelganda mehmon!

Po'lat Mo'min



4. She'r asosida berilgan gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.
5. She'r qahramoniga ism qo'ying. She'r-dagi voqeani o'z so'zlaringiz bilan yozing.



45



She'r haqida berilgan ma'lumotni o'qing.



She'rning qatorlarida bo'g'inlar soni bir xil bo'ladi. She'rdagi qatorlar oxirida ohangdosh so'zlarning kelishiga qofiya deyiladi.



She'riy parchani o'qing. Topshiriqni bajaring.

Keldi bahor, gulbahor,
Erib bitdi oppoq qor.
Uchib keldi qushlarjon,
Daraxtlar taqdi marjon.

1. Har bir qator necha bo'g'indan iborat ekanini aniqlang.
2. Qofiyadosh so'zlarni toping.



6. Daftardagi mashqni bajaring.



"She'r bo'ladigan so'zlar" mavzusida siz bir nechta she'rni tingladitingiz, o'qidingiz. Shu she'rlardan o'zingizga yoqqanini yod oling.



Yod olgan she'ringizni aytib bering.




SANAMALAR

5



Rasmga qarang. Savollarga javob bering.



- 1 Rasmda qaysi o'yin tasvirlangan?
- 2 Bu o'yin qanday o'ynaladi?
- 3 O'yin davomida qanday she'r aytiladi?



1. Mashq daftaridagi topshiriqni bajaring.



She'rni o'qing. O'qish davomida bo'sh o'rinalarga oy nomlarini qo'ying.

OYLAR KELAR KETMA-KET

Kel, sanaymiz – turma chet,
Oylar kelar ketma-ket:
.....,,,
O'ynaymiz qorbo'ronlar.



..... bersa darak,
Pishar somsa, sumalak.
..... ham yaxshi, ham yomon
Axir bor-da imtihon!

.....,, so'ng,
Hamma ishlar bo'lar o'ng.
.....ni olamiz,
Biz mакtabga boramiz.



....., boq –
Atrof bo'lar zarg'aldoq.
Kel, sanaymiz – turma chet,
Oylar kelar ketma-ket...

Dilnavoz Najimova





Raqamlarga qofiyadosh bo‘la oladigan so‘zlar ni ayting.

Namuna: *bir* – *sirga* qofiyadosh.

1 –	2 –	3 –	4 –	5 –
6 –	7 –	8 –	9 –	10 –

puch

dakki

qiz

qo‘n

tadbir

ko‘r

to‘n

esh

ketdi

aziz

kuch

qoldi

ukki

jo‘n

zo‘r

mo‘rt

siz

soldi

chakki

biz

mesh

yetdi



She’rni o‘qing. Savollarga javob bering.


RAQAMLAR BO'YLAB SAYOHAT

Bir – mitti raqam,
U ikkidan kam.
Ko'kda bitta oy,
Ochadi chiroy.
Va bitta quyosh
Ufqqa qo'yay bosh.
Bittadir yana
Vatan va ona.

Birdan so'ng ikki,
Bahosi – dakki.
U der: ilming bo'sh,
Unga bilim qo'sh.
Do'st bo'lsa biroq
Illi ko'z, qulqoq,
Illi oyoq, qo'l,
Ishi bo'lar zo'r.

Ikkidan so'ng uch
Senga kelar duch.
Eslagin, o'rtoq,
Shunday bor sanoq.
Bir, illi, uch,
Uchdan keyin puch.
"Uch og'a-ini"
Ayt ertagini.
Ertaklarda mo'l,
Uchrar uchta yo'l.





So‘zlar yo‘lchiroq –
Menga uch chiroq:
– Qizil, sariq, ko‘k,
Boshqa rangim yo‘q.

Uch ham biroz mo‘rt,
Undan kuchli to‘rt.
O‘ylasang qarab,
Bordir to‘rt taraf.
Sharq-u g‘arb, janub,
Shimol – qori ko‘p.
Yilning ham asli
O‘tar to‘rt fasli.
Qish, bahor va yoz,
Kuz ham juda soz.
Gijinglar toychoq,
Unda to‘rt oyoq.

A’lochiga esh
Bo‘lgan raqam – besh.
Xursanddir kishi,
“Besh” bo‘lsa ishi.
Har qo‘lda, o‘rtoq,
Bordir besh barmoq.
Barisi ahil,
Emaslar baxil.

Kavsar Turdiyeva



- 1 She'rda aytishicha, dunyoda nimalar bitta ekan?
- 2 Nima uchun ikkining bahosi dakki deyilmoqda?
- 3 She'rdagi yo'Ichiroq nima?
- 4 She'rda to'rt raqami bilan bog'liq qanday hodisalar tilga olingan?
- 5 A'llochiga yo'ldosh bo'ladigan raqam qaysi ekan?





2. She'rdagi qofiyadosh so'zlarni yozing.



Bitta so'z ayting. Partadoshingiz shu so'zga qofiyadosh boshqa so'z aytsin. To'g'ri aytsa, qarsak chaling.



Rasmlarga qarang. Har bir qatorda qofiyadosh bo'la oladigan so'zlarni bildiruvchi rasmlar bor. Qaysi biri ortiqcha ekanini ayting.



Ortiqcha rasmlar bildirgan so'zlar nega qofiyadosh emas?



3. Mashq daftaridagi topshiriqni bajaring.



Sanamalar odatda biror o'yinni boshlab olish uchun ishlataladi.

“Quvlashmachoq” o‘yinini boshlashdan oldin mana bu sanamadan foydalanish mumkin:



Bir, ikki, o‘n olti...
O‘n olti deb kim aytdi?
O‘n olti deb men aytdim.
Ishonmasang, sanab boq:
Birov,
Ikkov,
Uchov,
Qochov!

“Qochov” so‘zi aytilganda sanayotgan bolanning qo‘li kimda to‘xtasa, o‘sha odam quvlaydi.






Sanamalardan o'yin davomida ham foydalanish mumkin.



- 1 "Bekinmachoq" o'yinida sanaganmisiz? Qanday sanagansiz?
- 2 Kim sanashini aniqlash uchun qanday usuldan foydalangansiz?



- 1 Qanday topishmoqlarni bilasiz?
- 2 Topishmoqning javobini topish nimasi bilan qiziq?



Topishmoqlarning javobini toping. Javob topishmoqdagi so‘zlarga qofiyadosh bo‘lishini hisobga oling.

- Bir, ikki... o‘n olti,
O‘n olti deb kim aytdi?
- O‘n olti deb men aytdim,
Shartta ortimga qaytdim.
- Yo‘q, qaytmagin, shoshmay tur,
Savolim bor, javob ber:
Doim kulib boqadi,
Tafti tanga yoqadi.
Berar harorat, yog‘du,
Qani, ayt-chi, nima u?
- Savoling juda oson,
Uni bilar keksa-yosh.
Axir u saxovatli
Qadrdon
- Bir, ikki... o‘n olti,
O‘n olti deb kim aytdi?
- O‘n olti deb men aytdim,
Shartta ortimga qaytdim.
- Yo‘q, qaytmagin, shoshmay tur,
Savolim bor, javob ber:



Cholday oppoqdir sochi,
Osmonga yetar boshi.
Uzoqdan ko'rinadi,
Bilsang, ayt-chi, nima u?

– Xayolim ishga soldim,
Birpasda topib oldim.
Mag'rur, yuksak, viqorli,
Axir u ... dir ... li.

Orif Tolib




Siz ham shunday topishmoqlarni bilasiz-mi? Sinfdoshlaringizga ayting. Ular javob topishga harakat qilishsin.



Topishmoqlarning javoblari rasmlarda ya-shiringan. Ularni toping.

Bu jonivor beozor,
Usti nuqul tikanak.
Koptok deysiz bemalol,
Bo'lib olsa g'ujanak.



57




To'r ustida yashaydi,
Pashshani o'rab tashlaydi.

Bir aybi bor:
Turib semirar.



"Teg", desam, tegmaydi,
"Tegma", desam, tegadi.



Yo'l ko'rsatar hammaga,
Hamisha uch xil chiroq,
E'tiborsiz bo'lsa kim,
Deydi: "Ko'zlarimga boq!"





Quyidagi misralarni tez aytishga harakat qiling.

Pirpirak pirillaydi,
Chirildoq chirillaydi.

Tohir tog'a tog'da tulki tutdi.

Qalpoqni top, qopqoqni yop.

Oq choynakka oq qopqoq,
Ko'k choynakka ko'k qopqoq.



Uyingizdagи kattalardan qanday sanamalar, topishmoqlar, tez aytishlar bilishlarini so'rang. Daftaringizga yozib oling.



Topishmoqlarning javobini to'g'ri topish uchun misralarda yashiringan ma'noni topish kerak bo'ladi.

*Sandiq to'la oq sadaf
Turishadi tortib saf.
O'ttiz ikkita o'rtoq
Yashaydi ahil-inoq.*



Ushbu topishmoqning javobini topish yo'lilarini ko'rib chiqamiz.

1. Kalit so'z va birikmalarni ajratib olamiz: *oq sadaf, o'ttiz ikki, tortib saf, sandiq*.

2. Ushbu kalit so‘z va birikmalarining ma’nolarini aniqlaymiz: ***oq sadaf*** – oppoq dur, ***o’ttiz ikki*** – ular 32 ta, ***tortib saf*** – ular qator bo‘lib turadi, ***sandiq*** – sandiqqa o‘xshash narsaning ichida turishadi.
3. Bu ma’nolarni nima birlashtirib turganini topamiz: og‘izdagi tishlar.

Topishmoqning javobini topdik. Bunda og‘zimiz sandiqqa, 32 ta tishimiz esa saf tortib turgan oq sadafga o‘xhatilmoqda.

Boshqa topishmoqlar javobini ham shunday qilib topish mumkin. Keling, bittasini topib ko‘ramiz.

*Katta-kichik besh o‘rtoq
Uyushsa, bo‘lar to‘qmoq.*

Har bir qadamga mos bo‘lgan javoblarni aytинг.

1. Kalit so‘zlar.
2. Kalit so‘zlarning ma’nolari.
3. Ularni nima birlashtirib turibdi?



Yana bir misol:



Dum-dumaloq,
Yum-yumaloq.
Ichi to‘la havo-yey,
Tepsam, otar shataloq.



4. Mashq daftaringizdagi topshiriqni bajaring.



Rangli qog'ozlardan qizil va yashil doirachalar kesib oling.



- ① Oldinroq sizga uydagi kattalardan sanama, topishmoq hamda tez aytishlar so'rab, yozib kelish topshirilgan edi. Har biringiz navbat bilan bittadan namuna o'qib bering.
- ② Sinfdoshlaringiz topishmoqlarni topib, tez aytishlarni aytib ko'rsin.
- ③ Topishmoqni topa olganga yashil, tez aytishni ayta olganga qizil doirachani tutqazing.
- ④ Yakunda kim ko'p doiracha to'plasa, o'sha g'olib bo'ladi.


MUSTAHKAMLASH DARSI



“Qofiya” o‘yinini o‘ynang. Sinfdoshingiz aytgan so‘zga qofiyadosh bo‘la oladigan so‘z ayting. Har uchtadan keyin yangi so‘zdan boshlang.



Quyidagi rasmlarga qarang. Ularga bog‘liq qanday topishmoqlarni bilasiz?



Quyidagi she’rni bo‘s sh qoldirilgan o‘rinalarni to‘ldirib o‘qing va yozing.

oyim

o‘zim

kosa

bo‘laman

– Yo‘q, demay ishni
Qilaman doim.
Ne uchun xursand
Bo‘lmaydi

– Idish-tovoqni
Yuvdim xo‘p rosa.
– Ko‘rdim, sinibdi
Ikkita

Oq ko‘ylagimni
Yuvdim-ku?
– Yaxshi chaymabsan –
Dog‘-dug‘-ku, qizim?

– Mehnatsevarsan,
Buni bilaman.
O‘xshatsang ishni,
Xursand






OY YERDAN KATTAMI?



Rasmga qarang. Quyosh tizimidagi sayyoralar nomini ovoz chiqarib o'qing.





- ① Quyosh tizimi deganda nimani tushundingiz?
- ② Quyosh tizimidagi eng katta sayyora qaysi?
- ③ Bu sayyoralar yerdan ham ko‘rinadimi? Osmondagи yorqin nuqtalarni nima deb ataymiz?
- ④ Yerga eng yaqin turadigan osmon jismining nomi nima?
- ⑤ Osmonda yana qanday jismlar bor? Nomini bilasizmi?
- ⑥ Osmonni yana qanday nomlar bilan ataymiz?



- Quyosh tizimidagi sayyoralar nomini tartibi bo‘yicha yozing.
- Sayyoralar nomini ovoz chiqarib o‘qing.



Osmon jismlariga atab qo‘yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi.



1. Berilgan savollarga to‘liq javob yozing.



65



“Yerning yo‘ldoshi” audiomatnini tinglang.



- 1 Oy qaysi sayyora atrofida aylanadi?
- 2 Yer Oyni qanday ko‘rinmas kuch bilan o‘ziga tortadi?
- 3 Oy nima uchun Yerga qulab tushmaydi?
- 4 Oy sayyoramizdan qanchalik kichkina? Misol bilan tushuntiring.
- 5 Odamlar Oyga ilk bor qachon parvoz qilgan?
- 6 Oyga qaysi fazo kemasida uchishgan?
- 7 Ilk bor Oyga qo‘ngan fazogirlarning ismi nima?



- Osmon, samo, fazo, koinot, ko'k, borliq, olam so'zlarning ma'nosi haqida o'ylang.*
- So'zlarning ma'nosini sinfda muhokama qiling.*
- Ma'nosi bir-biriga o'xshash so'zlarni ko'r-sating.*



2. **Osmon, samo, fazo, koinot so'zlarining ayrimlari ishtirop etgan uchta gap tuzing.**



YERNING YO'L DOSHI

Oy har doim Yerning atrofida aylanib turadi. Go'yo Yerimiz uni ko'rinmas arqon bilan tutib turadigandek. Bu "ko'rinmas arqon" aslida **tortishish** kuchi deb ataladi. Magnit temir bo'lagini o'ziga tortgandek Yer ham Oyni tortib turadi. **Qo'rqmang**, u Yerga qulab **tushmaydi**. Sababi



Oy katta tezlikda **uchadi**. Fizika qonunlari shunaqa, bu haqda yuqori sinflarda bilib olasiz.

Oy – Yerning tabiiy **yo'ldoshi**. U Yerdan ancha **kichkina**. Agar Yerimizni katta bir qop deb tasavvur qilsak, bu qopning ichiga 50 ta Oy joylashadi.

Oy bizning sayyoradan unchalik uzoqda emas. Zamonaviy fazo kemalari Oyga bir kunda yetib boradi.

1969-yili amerikalik fazogirlar Nil Armstrong va Baz Oldrin “Apollon 11” kemasida Oyga **uchib** borishgan. Fazogirlar Oy sathida bir kun qolib, so'ng yana Yerga qaytishgan.

“Mening galaktikam” kitobidan



- 1 Nega Oyni Yerning yo'ldoshi deb ataymiz?
- 2 Tabiiy yo'ldoshning sun'iy yo'ldoshdan farqi nima?
- 3 “Yo'ldosh” so'zining ma'nosini bilasizmi?
- 4 Yo'l + dosh, parta + dosh, sinf + dosh so'zlari nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?
- 5 Agar fazogir bo'lganingizda, qaysi sayyorralarga uchgan bo'lar edingiz?



3. Daftardagi mashqni bajaring.





She'rni ifodali o'qing.

OY

Osmon uzra oy suzar,
Yulduz safini buzar.
Atrofga nur sochadi,
O'ziga yo'l ochadi.

Yumib-ochsam ko'zimni,
Tongda ko'rdim o'zimni.
Yulduzlar bo'lgan g'oyib,
Qushlar kuylar ajoyib.

Qorong'ilik tark etgan,
Kunduz uni g'arq etgan.
Quyosh nurini sochgan,
Ayting, oy qayga qochgan!

Abdulla Po'latov



- 1 She'rda tabiatda sodir bo'luvchi qaysi hodisalar tasvirlangan?
- 2 "Osmon uzra oy suzar, Yulduz safini buzar" misralarini o'qiganda nimalar ko'z oldingizga keladi?
- 3 Nega quyosh chiqqanda oy g'oyib bo'ladi?
- 4 Ayting-chi, she'rning oddiy og'zaki nutqdan farqi bormi?
- 5 She'r yozganda nimalarga e'tibor berish kerak?

OYNI O'G'IRLASHDI





7

Agar Oy bo'lmasa, sayyoramizda
ham hayot bo'lmaydi.



8

Agar Oy o'z joyidan ozgina
uzoqlashsa, tabiatdagi
muvozanat buziladi.

9

Sayyoramizga kelib urili-
shi mumkin bo'lgan
kometalarni Oy
qalqonday to'sib qoladi.



10

Oy – sayyoramizning magniti. U
Yerning aylanish tezligini nazorat
qiladi. Endi u yo'qligi sabab Yer
ham juda sekin aylanyapti.









23

Qoyil, rejamiz amalga oshdi!

24

Demak, olam mukammal
yaratilgan. Undagi har
bir narsaning o'z o'rni
va vazifasi bor!



Komiks matni "Jippi akademik" jurnalidan olindi.



4. Rasmga qarab Oyning vazifalari haqida gaplar tuzing.





5. Rasmlarga qarab kichik hikoya yozing.

- Partadoshingiz bilan suratlarda aks etgan voqea haqida fikr almashing.
- Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.
- Hikoyada *Oy*, *Yer*, *Quyosh*, *osmon*, *fazo*, *koinot* kabi so'zlardan foydalanishga harakat qiling.
- Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqidagi o'z fikringizni ayting.






SIZ BUNI BILASIZMI?



Rasmlarga qarang. Savollarga javob bering.




Qadimda ayrim xalqlar yerni toshbaqa ustidagi uchta fil ko'tarib turadi deb o'ylashgan. Toshbaqa esa ummonda suzib yurar emish.



Osmondagи yulduzlar soni yerdagi qum zarralaridan ham ko'r.



Yupiter sayyorasida olmos yomg'iri yog'adi.




Ko'k kitning tili avtomo-bildan ham kattaroq.

Yer yuzasining uchdan ikki qismi suvdan iborat. Biroq bu suvning juda ham oz qismi iste'molga yaroqli.




Yerga tashlangan plastik chiqindilar 500 yildagina chirib, yo'q bo'lib ketadi.

Oddiygina hojat qog'ozi tayyorlash uchun kuniga 20 mingdan ortiq daraxt kesiladi.



Dunyodagi ilk kompyuterning og'irligi 27 tonna bo'lgan.



- 1 Nima deb o'ylaysiz, dunyoda siz bilmaydigan narsalar ko'pmi? Nimalar haqida ko'proq bilishni istaysiz?
- 2 Nima uchun odamlar olam haqida ko'proq bilishni istaydi?
- 3 Bilimli odam bilan bilimsiz odamning farqi nimalarda ko'rindi?




1. Gaplarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini berilgan ma'lumotlar yordamida aniqlang.
2. Quyidagi so'zlarni talaffuz qiling va yozing: *Yupiter, avtomobil, plastik, kompyuter, tonna*.



КО'ZOYNAKKА QADAR

Tarixda dumaloq shisha idishlar ko'zoynak vazifasini o'tagan. Idishning ichi suv bilan to'ldirilgan. Uni ko'zga yaqin tutib kitoblarni o'qish mumkin edi. Keyinroq shishadan linzalar yasalgan. Ularni qo'l bilan tutib turish uchun dastagi ham bo'lgan. Yana burunga yoki ko'z soqqasiga qotiriladigan g'aroyib ko'zoynaklar ham bo'lgan. Lekin eng qulay ko'zoynak – dastasi (bandi) quloqqa taqiladigani bo'lib chiqqan.

"Ixtiolar sarguzashti" kitobidan



- 1 Tarixda ko'zoynakning qanday ko'rinishlari bo'lgan?
- 2 Ko'zoynak nimalardan yasalgan?
- 3 Nima deb o'ylaysiz, nega ixtirochilar birinchi urinishdayoq hozirgidek qulay ko'zoynakni yasay olishmagan?



3. Matn asosida bo'sh o'rirlarni to'ldiring.
4. Berilgan so'zlarni mos ustunga yozing.

tarix

bugun

kelajak



Qiziqarli mashg'ulot.

KO'ZNI ALDASH MUMKINMI?

"O'z ko'zim bilan ko'rmagunimcha ishonmayman", deymiz ba'zan. Chunki ko'z bizning eng ishonchli do'stimiz-da. Biroq, bilib oling, ko'z ham adashar ekan. Quyidagi tajribada bunga o'zingiz guvoh bo'lasiz.

Sizga kerak bo'ladi:

- oq karton;
- rangli qalamlar;
- qaychi;
- rezina.



- 1 Kartondan kosa og‘zidek kattalikda doira kesib oling.



- 2 Doiraning ikki chetidan rasmdagi kabi teshik ochamiz.

- 3 Doiraning bir tarafiga bo‘sh akvarium, ikkinchi tarafiga esa baliq rasmini chizamiz.



- 4 Teshiklardan rezinani o‘tkazib, doirani rezina taranglashguncha aylantiramiz.

- 5 Rezinani qo‘yib yuboramiz. Natijada baliq akvarium ichiga “tushib” qoladi. Aniqrog‘i, bizga shunday ko‘rinadi.



Bu qanday sodir bo‘ldi?

Aslida, siz baliq va akvariumni navbatma-navbat ko‘rib turibsiz. Ammo bu juda tez sodir bo‘lmoqda. Ya’ni ko‘z baliq rasmini miyaga uzatguniga qadar akvarium rasmiga navbat kelib qolmoqda. Bu holatda “dangasa” miyamiz uchun baliq va akvarium rasmini birlashtirib ko‘rsatish osonroq. Qarang, demak, ko‘zimiz ham ba’zan aldanar ekan!

“Jajji akademik” jurnalidan



- ① Ayting-chi, baliq qanday qilib akvarium ichiga “tushib” qoldi?
- ② Tushuntirib bering: muammo miyamizdamni yoki ko‘zimizda?
- ③ Eslang, yana qaysi qurilmalarga qaraganimizda ko‘zimiz bizni alday boshlaydi?
- ④ “Ko‘z – qo‘rkoq, qo‘l – botir” maqolidan qanday xulosa chiqarasiz?



QALAMGA QADAR

Qalam rus tilida “karandash” deyilishini yaxshi bilasiz. Lekin “karandash” ruscha so‘z emas, balki o‘zbekchadir. U o‘zbek tilidagi “qora” va “tosh” so‘zlarining birikishidan hosil bo‘lgan. Ruslar “qoratosh” so‘zini “karandash” deb talaffuz qilishgan.

Gap shundaki, qadimda neft qotishmasidan qalam sifatida foydalanishgan. U xuddi toshga o'xshar edi. Hozirda qalam ishlab chiqarishda grafit degan toshdan foydalaniladi. Bu tosh ko'mirga o'xshab ketadi. U yer ostidan qazib olinadi.

"Ixtiolar sarguzashti" kitobidan



- 1 "Karandash" so'zining o'zbekcha ekanini qanday bilib olamiz?
- 2 Qalamni nega "qoratosh" deb atashgan?
- 3 Nima deb o'ylaysiz, nega "qoratosh" so'zi rus tilida "karandash" bo'lib qolgan?

SAYOATCHI SO'ZLAR BILAN TANISHING!



O'zbek tilida

yo'g'urt

Rus tilida

yogurt (йогурт)



O'zbek tilida

tustag'on

Rus tilida

stakan (стакан)



O'zbek tilida

o'tuk

Rus tilida

utyug (утюг)



O'zbek tilida

kerpich

Rus tilida

kirpich (кирпич)



Ayrim so‘zlar bir tildan ikkinchi tilga ko‘chib o‘tishi mumkin. Masalan, “kompyuter” so‘zini biz ingliz tilidan olganmiz.



5. “Sayohatchi so‘zlar”ni ko‘chirib oling.




GUGURTGA QADAR

Eng qadimgi odamlar olov yoqishni bilishmagan. Ularga olovni tabiatning o‘zi sovg‘a qilgan. Yashin tushgan vaqtida daraxtlarga o‘t ketadi. Odamlar esa yonayotgan daraxt shoxini olib qochishgan. Keyin gulxan yoqishgan. Bir odam gulxanni tun-u kun qo‘riqlab, o‘chib qolmasligiga javob bergan. Shu tariqa gulxan oylar, yillar davomida o‘chmagan.

Keyinchalik, odamlar gugurtni ixtiro qilishdi. Hozir olov yoqish juda oson ish. Biroq xavfsizlik qoidalarini hamma ham bilarmikan?!



“Ixtiolar sarguzashti” kitobidan



- 1 Ayting-chi, birgina olov tufayli odamlar hayotida nimalar o'zgardi? Ko'proq misollar keltiring.
- 2 Olov bilan bog'liq xavfsizlik qoidalarini bilasizmi? Misollar bilan ayting.
- 3 Bolalarga mustaqil olov yoqish taqiqlanganini bilasizmi? Nega shunday?



6. Matn bilan bog'liq topshiriqlarni bajaring.



“Dunyoni o'zgartirgan ixtiolar” audiomatnini tinglang.





- ① G'ildirak ixtiro qilingandan so'ng odamlar nimaga erishdi?
- ② Tasavvur qiling, g'ildirak ixtiro qilinmasa, hozir dunyoda hayat qanday kechardi?
- ③ Kompas qayerda ixtiro qilindi?
- ④ Kompas ixtiro qilingach, odamlar nimaga erishdi?
- ⑤ Elektr toki ixtiro qilinmaganda, hozir hayotimiz qanday bo'lar edi?
- ⑥ Kompyuter odamlar hayatida nimalarni o'zgartirdi?



7. Audiomatn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.



Yaqin orada sizni qaysi ma'lumot hayron qoldirdi? Siz buni bilganingizdan so'ng, nimalar o'zgardi? Hikoya qilib bering.



"Men buni yaqinda bildim" nomli kichik hikoya yozing.

MUSTAHKAMLASH DARSI



- 1 Komiksdagi qaysi qahramon bilimliroq?
- 2 Eng qo'rmas qahramon qaysi?
- 3 Siz qaysi qahramonning ornida bo'lishni istaysiz?



1. Tushirib qoldirilgan harflarni qo'yib, so'zlarni o'qing va yozing.

K...mpas

el...ktr

a...tobus

k...mpyuter

...ran

...upiter

a...tomobil

Merk...riy

...aturn

N...ptun



2. Ushbu bo'limda o'rganganlaringiz asosida 3 ta ma'lumot yozing.



Topishmoqni o'qing va javobini toping. Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.

Yo'qdir qo'l-u oyog'i,
Na ko'zi, na qulog'i.
Ammo unga bir qadam
Yer shari, Oy-u Zuhro.

O'QUV YILI OXIRIDA TAKRORLASH



ENDI GRIPP BO'L MAYMAN

1-qism

Alisher devorda o'rmalab yurgan g'aroyib maxluqchani ko'rib qoldi. Yaqinlashib qarasa, gripp ekan. Chaqqon bola emasmi, oshxonadan tezda idish olib kelib, grippni qamab qo'ydi.

- Ushlab oldimmi?! Ana endi, singlimni kasal qilganing uchun ta'ziringni beraman!
- U men emas, boshqa gripp edi. Men yaqinda ishga kirdim, hali ko'p narsani bilmayman, – dedi qo'rqib ketgan maxluqcha.
- Unda bu yerda nima qilyapsan? – so'radi Alisher qovog'ini uyib.
- Haligi... Seni kasal qilgani keluvdim, – dedi gripp.



– Hali shunaqami?! – Alisherning jahli chiqib ketdi.

U idishga qaynoq suv quyib grippni yo‘q qilmoqchi bo‘ldi.

– To‘xta, meni jazolama. Balki, kelisharmiz?.. – ko‘zлari yoshlanib iltimos qildi gripp.

– Kelishamiz, gripp bilan-a?!

– Nima qipti? Meni qo‘yib yuborsang, kasallikdan saqlanishning hech kim bilmaydigan sirlarini aytib beraman.

– Mayli, roziman, lekin shunda ham boshqalarni kasal qilmaslik sharti bilan, – dedi Alisher.



1

“Alisher devorda o‘rmalab yurgan g‘aroyib maxluqchani ko‘rib qoldi”. Ushbu maxluqcha nima edi?

A. Hasharot B. Gripp D. Chang

2

Nima uchun Alisher maxluqchani idishga qamab qo‘ydi?

A. U bilan do‘splashish uchun
B. U bilan tanishish uchun
D. Uni jazolash uchun

3

Maxluqcha kimni kasal qilmoqchi ekanini aytdi?

A. Alisherning singlisini
B. Alisherni
D. Alisherning opasini



ENDI GRIPP BO'L MAYMAN

2-qism

– Unda, eshit. Biz asosan havo orqali yuqamiz. Gripp bo'lmaslik uchun quyidagi maslahatlarimga amal qil.

- Maktabda va avtobusda niqob taqib yur. Chunki bunday joylarda biz judayam ko'p bo'lamiz.
- Qo'ling bilan burun va og'zingni ko'pam ushlayverma. Biz ko'proq bolalarning qo'llariga yopishib olamiz. Shuning uchun qo'lingni ham tez-tez sovunlab yuv.
- Kasal bo'lib qolgan o'rtoqlaring bilan ma-sofa saqla. Chunki ular aksa urganda menga o'xshagan grippchalar senga ham yopishib oladi.
- Xonangni tez-tez shamollatib tur. O'shanda devor va buyumlarga joylashib olgan viruslar uzoqlarga uchib ketadi.
- Vaqtida ovqatlanib, vaqtida uxmlashni unutma. Charchagan va qorni och bolalarni biz osongina kasal qilib qo'yamiz.

Agar shu qoidalarga amal qilsang, hech qachon gripp bo'lmaysan!

- Tushunarli. Bularga albatta amal qilaman. Sen-chi, endi nima qilasan? – so'radi Alisher.
- Ishdan bo'shayman. Bolalarni kasal qilish o'zimga ham yoqmaydi. Yaxshisi, sayohatga chiqa-



man. Kichkinligimdan asalariga o'xshab guldan gulga uchib yurishni orzu qilardim. Sen esa hech qachon kasal bo'lma! Xayr, do'stim.

Alisher bilan xayrlashgan gripp oyna orqali tashqariga chiqib, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Sa'dullo Quronov



Gaplarni o'zaro moslashtirib o'qing.

Maktabda va
avtobusda niqob
taqib yur.

Xonangni tez-tez
shamollatib tur.

Biz ko'proq bolalarning
qo'llariga yopishib
olamiz. Shuning uchun
qo'lingni ham tez-tez
sovunlab yuv.

Kasal bo'lib qolgan
o'rtoqlaring bilan
masofa saqla.

Chunki bunday joylarda
biz juda ham ko'p
bo'lamiz.

Chunki ular aksa urganda
menga o'xshagan
grippchalar senga ham
yopishib oladi.

Charchagan va qorni
och bolalarni biz
osongina kasal qilib
qo'yamiz.

O'shanda devor va
buyumlarga joylashib
olgan viruslar
uzoqlarga uchib ketadi.

Maxluq – inson va jonivorlarning, tirik mavjudotning umumiy nomi.

Maxluq insondan boshqa jonli narsalarga nisbatan ko‘proq qo‘llanadi.



Matn asosida berilgan topshiriqlarni bajaring.



...

O‘rmon shifokorlari haqida eshitganmisiz? O‘rmonning ham shifokori bo‘lar ekanmi, deb hayron bo‘layotgan bo‘lsangiz, bu matn aynan siz uchun.

O‘rmondagi daraxtlarning tanasiga turli zararkunanda hasharotlar joylashib oladi. Ko‘pincha bunday zararkunandalar daraxt po‘stlog‘i ostida bo‘lgani uchun biz ularni ko‘ra olmaymiz. Zararkunandalar asta-sekinlik bilan daraxt tanasini yeb, unga ziyon yetkazadi. Bunday vaqtda daraxtlarga **qizilishton** yordamga keladi. U mustahkam tumshug‘i yordamida hasharotlarni birma-bir tutib yeydi. Shu bois ham bu qushni “o‘rmon shifokori” deb atashadi.

Qizilishtonni deyarli barchangiz ko‘rgan bo‘lsangiz kerak. Bu qushlar quyruq qismi qizil rangda bo‘lgani sabab qizilishton nomini olgan. Daraxtlar quyuq o‘sadigan joyda “taq...

taq... taq..." degan tovushni eshitib qolsangiz, bilingki, bu yerda qizilishton bor. Butun dunyoda ularning **220** dan ortiq turi mavjud. O'zbekistonda esa oqqanonot qizilishtonning 2 turi yashaydi.



Ko'pchilik qushlar havoda ucha olgani bilan daraxt tanasi bo'ylab yuqoriga harakatlana olmaydi. Ammo qizilishton daraxt tanasida bemalol yuqoriga harakat qilaveradi. Chunki uning oyoq panja barmoqlarining ikkitasi orqaga, ikkitasi esa oldinga qaragan.

"O'rmon shifokori" haqiqatan ham juda foydali qush bo'lib, u bir o'tirishda daraxt tanasidan **1000 tagacha** hasharotni terib yeyishi mumkin. Po'stloq ostidagi hasharotlarni terib yeyishda unga uzun va yopishqoq tili ham qo'l keladi.

Qizilishtonlar daraxt kovaklariga in qurishadi. Odatda tayyor kovaklardan foydalanishadi, ba'zan bunday kovaklarni tumshuqlari bilan hosil qilishadi. Ona qizilishton 2 tadan 12 tagacha tuxum qo'yadi.

Dunyodagi eng yirik qizilishton **Amerika qiroq qizilishtoni** bo'lib, uning uzunligi 55 cm ni, eng kichik **pakana qizilishtonning** bo'yisi esa atigi 8 cm ni tashkil etadi.

Baxtiyor Sheraliyev

Bu qiziq!

Qizilishtonlar odatda ovoz chiqarmaydi. Lekin ularni daraxt tanasini taqillatishidan tanib olish mumkin. Ular daraxt tanasiga tumshug'ini bir soniyada **20–25 marta** ura oladi. Agar boshqa qushlar shunday tezlikda qattiq jismga tumshug'i bilan ursa bormi, miyasining "qatig'i" chiqib ketishi aniq.



1

Qizilishtonning qanday foydali tomoni bor?


- A. O'rmonda "taq... taq... taq" degan ovoz chiqarib, atrofdagi hayvonlarni xavfdan ogohlantiradi.
- B. Daraxtdagi zararkunanda hasharotlarni birma-bir tutib yeydi.
- C. Daraxtlarda boshqa qushlar uchun kovak tayyorlab, in qurib beradi.

- (2) Po'stloq ostidagi hasharotlarni tutib yeyish uchun qizilishtonlarga ... yordam beradi (javobingiz birdan ortiq bo'lishi ham mumkin).**
- A. O'tkir ko'zlari, mustahkam tumshuqlari
 - B. Sezgir burni va kuchli gavdasi
 - D. Uzun va yopishqoq tili
 - E. Qizil rangli "ishtoni" va pakana bo'yি



Quyidagi ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanini aniqlang.

T/r	Ma'lumotlar	Javoblar
1	Daraxtlar quyuq o'sadigan joyda "taq... taq... taq..." etgan tovushni eshitib qolsangiz, bilingki, bu yerda qizilishton bor.	To'g'ri / Noto'g'ri
2	O'zbekiston o'rmonlarida qizilishtonlar uchramaydi.	To'g'ri / Noto'g'ri
3	Qizilishtonlar faqat daraxtlarda yuradi, ular ucha olmaydilar.	To'g'ri / Noto'g'ri
4	Qizilishtonlar daraxt kovaklariga in qurishadi.	To'g'ri / Noto'g'ri
5	Dunyodagi eng yirik qizilishton Amerikada yashaydi.	To'g'ri / Noto'g'ri



O‘qigan matningiz uchun qaysi sarlavha ko‘proq mos keladi?

- A. O‘rmondagi qushlar
- B. O‘rmon shifokorlari
- C. Qizilishton haqida



Partadoshingiz bilan suhbat quring. Suhbatni dialog shaklida yozing. Yozuvda nuqta, so‘roq va undov belgilaridan to‘g‘ri foydalaning.

NIMA HAQIDA SUHBATLASHSAK EKAN?





Ushbu matndagi xatolarni toping va to‘g‘-rilab yozing.

Mening eng yaqin dostim Anvar va Abdulaziz. Men ular bilan maktabga borganda birinchimi ikkinchimi sinfda uchrashib qolganman ana o’shandan beri yaqin do’stlarimiz va har doim birga yuramiz bir-birimizni himoya qilamiz va hech qachon urushmaymiz.



Sevimli qahramoningiz yoki yaqin insonningizga xat yozing. Xat yozishni boshlashda berilgan namunalardan foydalanishingiz mumkin.



Assalomu alaykum, qadrli _____


Salom, _____

Men uchun _____

Mening eng _____

Bilasiz(san)mi, xat yozish uchun nega sizni (seni) tanladim? Chunki _____

Men seni (sizni) ko‘rmagan bo‘lsam ham, sen (siz) haqing(iz)da _____



MATNLARDA QO'LLANGAN SO'ZLAR LUG'ATI

Anhor – katta ariq.

Axloq – odamning o'zini tutishi, odobi.

Bakteriya – ko'zga ko'rinnmaydigan mayda tirik organizmlar.

Behad – juda ko'p, mo'l.

Behuda – foydasiz, foydasi yo'q.

Borliq – bizni o'rab turgan butun olam.

Bug'lanmoq – issiqlik ta'sirida suvning parlanishi.

Daromad – foyda.

Hazm – ovqatning odam tanasiga yaxshi singib ketishi.

Hordiq chiqarish – dam olish.

Hurpaymoq – soch, jun, patning to'zg'igan holati.

Ildam – chaqqon, tez.

Immunitet – organizmning zararli narsalardan himoyalanishi.

Irmoq – kichik daryocha. Irmoqlar bir-biriga qo'shilib, katta daryolarni hosil qiladi.

Izg'irin – judayam sovuq shamol.

Jismonan – odamning tanasiga oid.

Kislород – biz nafas oladigan toza havo tarkibidagi modda, ko'zga ko'rinnmaydi.

Ko'lmak – chuqr joyga to'planib qolgan suv.

Kunbotar – quyoshning botish vaqt (tomoni).

Laqab – biror kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo'shimcha nom yoki hayvonlarga qo'yilgan nom.

Loyiha – bir ishni bajarish uchun oldindan reja tuzib olish.

Mahorat – bir ishni juda yaxshi bajara olish.

Mahsulot – odamlar ishlab chiqargan narsa.

Mavsumiy – yilning ma'lum vaqtiga oid.

Miriqib – to'yib, qonib, maza qilib.

Modda – ko'rish yoki ushslash mumkin bo'lgan narsa. Moddalar ko'zga ko'rinas darajada mayda bo'lishi ham mumkin.

Momiq – paxtaday yumshoq.

Nozikta'b – ta'bi nozik, juda ham e'tiborli.

Organizm – odam va boshqa jonzotlarning butun tanasi.

Parvarish – qaramoq, boqmoq.

Payvandlash – biror o'simlik novdasini boshqa o'simlikka ulash.

Pinjiga kirmoq – yonidan joy olish, bag'riga kirish.

Qadoq – mahsulotning ustki o'rami.

Qal'a – mustahkam devor bilan o'ralgan, yaxshi himoyalangan bino yoki shaharcha.

Qapishish – zich tegib turish, yopishish.

Qiyoslamоq – bir nechta narsani o'zaro solishtirish.

Qizg'anчиq – narsasini birovga bergisi kelmaydigan odam.

Ruhan – odamning kayfiyati-ga oid.

Sahar – quyosh chiqishidan oldin g'ira-shira yorug'lik paydo bo'ladigan payt.

Sa'va – rang-barang patli sayroqi qush.

Serob – ko'p, mo'l-ko'l.

Shabada – mayin, yengil shamol.

Shom – quyoshning botish vaqtisi.

Sustqadam – sekin yuradigan.

Suyuqlik – suv kabi oqish xususiyatiga ega, qattiq bo'limgan modda.

Tabriknoma – tabrik so'zlari yozilgan xat.

Tomorqa – hovli-joy yonida joylashgan ekin maydoni.

Tong – quyoshning chiqish vaqt.

Tush – quyosh osmonning qoq tepasiga ko'tarilgan vaqt.

Tushlik – tush vaqtida yeyildigan ovqat.

Vitamin – inson va hayvon organizmi uchun zarur, foydali moddalar.

Xazon – kuzda sarg'ayib to'kilgan barglar.

Yupqa – qalin emas, nozik.

O'ra – sabzavot, don va shu kabilarni ko'mish uchun maxsus qazilgan, odatda osti kengroq bo'ladigan chuqurlik.

G'amxo'r – boshqalar haqidada o'ylaydigan, ko'p yaxshilik qiladigan odam.

Chatoq – yomon, xato, noto'g'ri.



O'quv nashri

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

2-QISM

*Umumiy o'rta ta'lif muktabalarining
1-sinfi uchun darslik*

Rassom ***Umid Sulaymonov***

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*
Musahhih *Mohinur Ablahakimova*
Sahifalovchi dizayner *Alimardon Aqilov*

Bosishga 07.06.2021-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 $\frac{1}{8}$.
Arial garniturasi. Kegli 18 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i: 12,09. Nashriyot-hisob tabog'i: 20,61.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma № ____.

"Yangiyul Poligraph Service" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
112001, Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahri,
Samarqand ko'chasi, 44-uy.